



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## RUS SHARQSHUNOSLIGIDA “BOBURNOMA” TADQIQI THE RESEARCH OF “BABURNAMA” IN RUSSIAN ORIENTAL STUDIES

Fayzulla Iskandarov

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent v.b.  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: [mfayzullaiskandarov@gmail.com](mailto:mfayzullaiskandarov@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./XYFO2035](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./XYFO2035)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini rus sharqshunoslari tomonidan o‘rganishi, tadqiq etilishi hamda tarjima qilinishi bilan bog‘liq jihatlar haqida umumiy ma‘lumotlar, zaruriy ilmiy-nazariy xulosalar bayon etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *N.I.Ilminskiy, A.N. Samoylovich, rus sharqshunosligi, boburiylar, Boburnoma, taxiriy manba.*

**Annotation.** *This article presents general information and necessary scientific and theoretical conclusions about the aspects related to the study, research, and translation of Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama" by Russian orientalists.*

**Keywords:** *N.I.Ilminsky, A.N. Samoilovich, Russian orientalism, Baburians, Baburnama, final source.*

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si butun jahonga mashhur va ma‘lum bo‘lgan badiiy-tarixiy manbadir. Ehtimolki, buning sababi mazkur asarda tasvirlagan jami voqealar muallif shaxsiyati orqali o‘tgani, rivojlangani, shu tariqa mazmunini to‘la namoyon qilgani, ma‘naviyat va abadiyat mulkiga aylangani bilan izohlash mumkindir. Javoharla‘l Neru 1955 va 1961 -yillardagi Hindistonning bosh vaziri “Hindistonning kashf etilishi” asarida yurtdoshimiz Bobur va uning nabirasi Akbar haqida shunday yozadi: “Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san‘atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan”[8, Энциклопедический лексикон 1835:8-26].

Ayniqsa, “Boburnoma”ga yuqori baho bergan Neru ta‘rifi bilan aytgan, bu go‘zal asar dilbar shaxs bo‘lgan Boburning juda ko‘p fazilatlari bilan bir qatorda, axloqiy va adabiy-estetik, siyosiy-sotsiologik, diniy-ma‘rifiy qarashlari ham yorqin ifodasini topgan. Shuningdek, “u tabiat va jamiyat nafosatini, voqealik nafosatini, shaxs, urf-odatlar va marosimlar, me‘morchilik, bog‘, adabiyot, va san‘at, xullas jami nafosatni chuqur his qiladi va teran tahlil etadi. Muallif asar davomida barkamol, ya‘ni axloqiy va estetik mukammal inson sifatida jonlanadi”



[Bobur, 2023:702]. “Boburnoma” olam bo‘ylab kezar ekan, O‘rta Osiyo va Hindiston xalqlari estetik tafakkuri uyg‘unlashgan manba sifatida dunyo xalqlarini qiziqtirib kelmoqda. Dunyo xalq tomonidan ko‘p bora qayta-qayta tarjima qilinib, asar ustida minglab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ana shunday tarjima va tadqiqotlar orasida rus boburshunosligi oldingi saflarda turadi. “Boburnoma”ga XIX asrning birinchi yarmida boshlangan ushbu qiziqish, dastlab, buyurtma asosida ma’lum bir maqsad doirasi o‘rganilgan yoki tarjima qilingan bo‘lsa, keyingi yillarda filologik, adabiy-tarixiy manba sifatida, matnshunoslik nuqtayi nazardan tom ma’noda har tomonla o‘rganilib, tarjima qilinib, tahlil qilinmoqda.

Dastlab, rus sharqshunos olimlari tomonidan “Boburnoma” XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Rusiyada ikki marta asl matnda nashr etilishi rossiyada boburshunoslikning tamal toshi bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik ko‘plab olimlar turli sabab va maqsadlarda, “Boburnoma”dan olingan asl matnlarning xrestomatiyalarga kiritilishi va ayrim parchalarning rus tiliga tarjima qilinishi bu asarni o‘rganish sohasida dastlabki yirik tadqiqotlardan hisoblanadi. “Boburnoma”dan qilingan bu parchalar va tarjimalar manbashunoslik, tarixshunoslik, madaniyatshunoslik-etnografik hamda tilshunoslik maqsadlarini ko‘zda tutgan bo‘lsa ham, ular ilmiy jamoatchilikning “Tuzuki Boburiy”ni o‘rganishga bo‘lgan alohida qiziqishi tasdig‘i edi.

Manbalarda keltirilishicha, boburiylar bilan Rossiya imperiyasining yaqin qo‘shniligi Bobur tomonidan Hindiston va Rossiya o‘rtasida savdo va diplomatik aloqalarni o‘rnatishga urinishi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan chegara hududida ko‘plab hududlarda Bobur nomi bilan bog‘liq joy nomlari, xalq orasida afsonalar ham uchraydi. Jumladan, I.S.Turgenev “Punin va Baburin” qissasida foydalangan Baburinning kelib chiqishi haqidagi rivoyat rusda o‘tmishda Bobur qiyofasiga xos “sharqiy bichim” alohida uqtiriladi: “boshqa ma’lumotlarga qaraganda, Paraman Semenichning bobokaloni Bobur oq suyak degan hind shohi edi”. Shuni ham hisobga olish kerakki, Turgenov N.A.Ostrovskaya bilan suhbatida ayni shu Baburin “bor odamga qarab yaratilgan” [Bobur, 2023:702] ini aytgan edi.

Rossiyada “Boburnoma”ni o‘rganish va tadqiqi birinchi marta XVIII asr o‘rtalarida Rusiya tashqi ishlar hay’atida xizmat qilgan, Chig‘atoy tili bo‘yicha mutaxassis Georg Yakob Kerning shaxsiy arxividagi “Boburnoma” qo‘lyozmasini ko‘chirish bilan boshlandi. 420 varoqdan iborat bo‘lgan ushbu nusxadan Georg Yakob Ker keyinchalik lotin tiliga parchalar tarjima qiladi. To‘liq tarjima qilishga ulgurmay 1740-yilda vafot etadi. Keyinchalik ushbu Georg Yakob Kerning ko‘chirgan nusxa N.I.Ilminskiyning nashriga asos bo‘ladi.

Oradan sal kam bir asr vaqtdan o‘tgandan keyin, “Boburnoma”ga qiziqish rus sharqshunoslari orasida yana qaytadan boshlandi. E’tibor bersak, dastlab, “Boburnoma”ning nusxalari ko‘chirtirilgan, keyinchalik til nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Asosan, chig‘atoy tilining noyob manbasi sifatida qarashgan.



Jumladan, rus-polyak olimi O.I.Senkovskiy sharqiy tillarni o'rganishga kirishib, “Boburnoma”ni o'z qo'llari bilan ko'chirib, asar haqida “Chig'atoy tili” maqolasini e'lon qildi. Ushbu maqola keyinchalik, rus adabiyotida birinchi bo'lib Bobur tarjimai holi va yurishlari tarixi haqida maqola yozgan V.V.Grigoryev maqolalarining yozilishiga sabab bo'lgan.

1835-yil Sankt Peterburgda nashr etilgan “Ensiklopedik leksikon” ko'p jildlik qomusiy lug'atda Bobur, boburiylar hamda “Boburnoma” haqida ko'plab ma'lumotlar, ilmiy maqolalar kiritilib nashr qilindi. 1857-yilda taniqli professor, rus turkologi Nikolay Ivanovich Ilminskiy tomonidan “Boburnoma” nashr qilindi. Nashr jarayonida “Boburnoma”ni tanqidiy matni ustida ham ishlagan N.I.Ilminskiy “Boburnoma”ni ingliz tiliga qilingan tarjimalari hamda forsiy tarjimalarga tayanib, asarni nisbatan to'liq nashrini amalga oshirdi.

XX asrning dastlabki yillarida Ilminskiy ishlarini mashhur rus sharqshunosi Aleksandr Nikolaevich Samoylovich davom ettirdi. Aleksandr Nikolaevich Samoylovich Nijniy Novgoroddagi klassik erkaklar gimnaziyasi direktori oilasida tug'ilgan. Bo'lajak olim otasi Nikolay Yakovlevich Samoylovichning maslahati bilan 1899-yilda Sankt-Peterburg universitetining Sharq tillari fakultetiga arab-fors-turk-tatar yo'nalishiga o'qishga kiradi. Aleksandr Nikolaevich Samoylovich sharq tillarini yaxshi o'zlashtirishi, tirishqoqligi va zukko qobiliyati ortidan uzoq yillardagi keyingi taqdiri fakultet bilan bog'liq bo'lib, u yerda turk-tatar adabiyoti kafedrasiga ilmiy izlanishlarini davom ettirish uchun ishga qoldiriladi. Bo'lg'usi olim 1907 yildan boshlab mazkur oliygo'nda dars bera boshlaydi. 1915-yil boshida u nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi; 1917-yildan boshlab sharq tillari mutaxassisi kafedra professori etib faoliyat yurita boshladi.

A.N. Samoylovich o'zning ilmiy faoliyatini juda ko'p qismini o'rta asr turkiy qo'lyozmalarini mukammal o'rgangan professional turkolog: tilshunos, dialektolog, ko'hna qo'lyozmalarni biluvchi, folklorshunos, etnograf va adabiyotshunos, O'rta Osiyo-turk adabiyoti tarixchisi sifatida adabiy tillar matn tanqidi an'alarini davom ettirdi va rivojlantirdi. Olim o'z ustaliklarida shunday yozgandi: “Men uchun Sharqda bo'lish, Vasilev orolida (Sankt-Peterburg) bo'lishdan ko'ra muhimroq. Men – Majnun, Turkiston – Layli. Tabiatimda musulmonlarga qandaydir yaqinlik bor va men ular bilan tez chiqisha olaman” [Xalliyeva, 2017:44].

Olim “Boburnoma”ning nashr etish, tarjima qilish ishlariga ishlariga boshchilik qildi. Asardan ma'lum bir bo'laklarni rus tiliiga tarjima qilib chop etti. Shu tariqa “Boburnoma” rus sharqshunoslarining doimiy e'tiborida bo'lib, ma'lum maqsadlar va mavzular doirasida o'rganildi. Taqdirning takrorlanishini qarangi, 1857-yilda nashr qilingan asar, oradan yuz yil o'tib, nihoyat, 1958-yilda M.Salye tomonidan qilingan rus tilida “Boburnoma”ning to'liq tarjimasini chop etildi.

Hozirgi kunda ham Moskva, Sant-Peturburg, Qozon va boshqa shaharlarda olimlar boburiylar va “Boburnoma” bo'yicha o'z tadqiqotlarini amalga



oshirmoqdalar. O‘zbek olimlari rus olimlari bilan birgalikda Bobur va boburiylar davrini o‘ganish, tadqiq etish bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy-amaliy hamkorliklarni amalga oshirmoqdalar. Bu esa o‘z navbatida kelajakda dunyo boburshunosligi doirasidagi yangi-yangi izlanishlar va ko‘plab tadqiqotlarga asos bo‘ladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурийлар. Тўплам. 5 жилдлик. 4 жилд. – Тошкент: “Zilol buloq” нашриёт, 2023.
2. Энциклопедический лексикон. Б-бар. – Санкт-Петербург: в тип. А. Плюшара, 1835. – С. 8-26.
3. Стеблева И.В. Поэтика древнетюрской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. – Москва: 1972. – С. 122.
4. Стеблева И. В. Семантика газелей Бабура. – Москва: Наука, 1982. 566.
5. Стеблева И.В. Семантическое единство газелей Бабура // Тюркологический сборник. – М., 1978. – С. 158-169.
6. G. Xalliyeva. Adabiyotshunoslik. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017. 44- bet
7. <https://ziyouz.uz/suhbatlar/iya-stebleva-men-doim-bobur-bilan-birgaman-2020/>
8. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/javaharlal-neru-dunyo-tarixiga-nazar-kitobidan-bobur-akbar.html>